

SEMANTIK MAYDON NAZARIYASINI TERMINLARGA TATBIQ ETISH

Amanova Xanifajon O‘tkirbek qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

Ilmiy rahbar: O‘lmas Saidov

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada semantik maydon nazariyasining terminologik birliklarga tatbiq etish texnologiyasi tahlilga tortilgan. Semantik maydon nazariyasi terminlarning ma’nosi, ularning bir-biri bilan bog‘liqligi va mantiqiy tuzilishini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, terminlarning semantik maydon doirasida tizimliliigi, ularning amaliyotda qo‘llanilishi asosida olingan natijalar lingvistik tadqiqotlar, pedagogik faoliyatda termin tushunchalarini aniq va izchil qo‘llash uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: semantik maydon, termin, terminologiya, lingvistik tahlil, semantik tizim, mantiqiy tuzilish, terminologik birliklar.

Kirish. Semantik maydon nazariyasi turli tildagi so‘zlarning va terminlarning ma’no jihatidan bir-biri bilan bog‘liqligini tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu nazariya til birliklarini semantik jihatdan tahlil qilish va ularning o‘zaro munosabatlarini tushunishga imkon beradi. Ayniqsa, terminlar tizimini shakllantirish, uni mukammallashtirish jarayonida semantik maydon nazariyasidan samarali foydalanish mumkin. Terminologiya ilm-fan va turli kasbiy sohalarda bilimlarni aniq, izchil yetkazishning asosiy vositasidir. Har qanday ilmiy yo‘nalishda terminlarning aniq ma’noga ega bo‘lishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tilshunoslik va terminologiya sohasida semantik maydon nazariyasining amaliy ahamiyati ortib bormoqda.

Semantik maydon nazariyasi, eng avvalo, leksik birliklarni ma’no jihatdan guruhlash va ularning ichki tuzilishini aniqlashga asoslanadi. Bu nazariya tilshunoslar, tarjimonlar, terminologiya bo‘yicha mutaxassislar uchun muhim vosita bo‘lib, til birliklarining tizimliliгинi ta’minlashga yordam beradi. Aynan shu tamoyil

terminlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, ularning bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma’nolarini izohlash imkonini beradi.

Semantik maydon nazariyasining terminlarga tatbiq etish va uning terminologik tahlildagi o‘rnini aniqlash uchun avvalo, quyidagi vazifalarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- semantik maydon nazariyasining asosiy tamoyillarini tahlil qilish;
- terminlarning semantik maydon doirasidagi tizimli bog‘liqligini o‘rganish;
- terminlarni tasniflash va semantik guruhlariga ajratish usullarini ko‘rib chiqish;
- nazariyaning terminologik tahlildagi ahamiyatini baholash.

Asosiy qism. Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi so‘zlar va terminlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash, ularning semantik jihatdan guruhlanishini tadqiq etish imkonini beradi. Bu nazariya ayniqsa, ilmiy va texnik terminologiyani shakllantirishda, ularning mazmunini aniq belgilash va tizimlilik bilan ajratib ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bo‘limda semantik maydon nazariyasining asosiy tamoyillari va uni terminlarga tatbiq etish texnologiyasi ko‘rib chiqiladi. Semantik maydon tushunchasi tilshunoslikda ma’lum bir soha yoki mavzuga oid bo‘lgan so‘zlarning umumiy ma’no maydoniga birlashishini anglatadi. Ushbu maydonlar semantik jihatdan yaqin bo‘lgan leksik birliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “*ta’lim*” maydoni ichiga “*pedagogika*”, “*o‘qituvchi*”, “*talaba*”, “*dars*”, “*ta’lim metodikasi*” kabi terminlar kirishi mumkin. Bu uslub terminlarni yaxlit tizim sifatida tushunish va ularni yanada mukammal tasniflash imkonini beradi. Semantik maydon nazariyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Tizimlilik tamoyili – til birliklari, xususan, terminlar bir-biri bilan bog‘langan holda umumiy tizimni tashkil etadi. Har bir termin o‘zining semantik vazifasi va boshqa terminlar bilan munosabatlariga ega.

2. Ierarxik tuzilish – terminlar semantik maydon ichida darajali tuzilishga ega bo‘lib, asosiy (giperonim), o‘rta va quyi darajali (giponim) terminlarga bo‘linadi. Masalan, “*kompyuter*” giperonim bo‘lsa, “*noutbuk*”, “*stol kompyuteri*”, “*planshet*” uning giponimlari hisoblanadi.

3. Polisemiya va omonimiya – ba’zi terminlar bir nechta ma’noga egabo‘lishi mumkin (polisemiya), ayrimlari esa bir xil shaklga ega bo‘lsa-da, turli ma’nolarni anglatadi (omonimiya).

4. Semantik munosabatlar – semantik maydon ichida sinonimiya, antonimiya, giponimiya va meronimiya kabi munosabatlar mavjud bo‘lib, bu terminlar tizimining yaxlitligini ta’minlaydi.

Terminologiyani semantik maydon doirasida shakllantirish uchun quyidagi bosqichlar bajariladi:

1-bosqich: Terminlar to‘plamini aniqlash. Dastlab, ma’lum bir soha yoki mavzuga oid barcha terminlar yig‘iladi. Bu jarayonda ilmiy adabiyotlar, lug‘atlar va ekspert fikrlariga tayaniladi.

2-bosqich: Terminlarni semantik jihatdan tahlil qilish. Har bir terminning ma’nosi, uning boshqa terminlar bilan bog‘liqligi va umumiy tizimdagi o‘rni aniqlanadi. Semantik tahlil yordamida sinonim, antonim va giponimlar aniq belgilanadi.

3-bosqich: Terminlarning semantik guruhlariga ajratish. Terminlar tematik maydonlarga ajratiladi. Masalan, ta’limga oid terminlar quyidagicha guruhlanishi mumkin:

Ta’lim jarayoni: *o‘qitish, o‘rganish, darslik, metodika.*

Pedagogik texnologiyalar: *interaktiv ta’lim, masofaviy ta’lim, modul ta’limo*

Ta’lim ishtirokchilari: *o‘qituvchi, talaba, murabbiy, repetitor.*

4-bosqich: Terminlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikni modellashtirish. Terminlar diagramma yoki grafik shaklida ifodalanib, ularning o‘zaro aloqalari aks ettiriladi. Masalan, semantik tarmoqlar orqali asosiy va ikkilamchi terminlar tasvirlanadi.

5-bosqich: Terminlar tizimini standartlashtirish va kodifikatsiya qilish. Aniqlangan terminlar lingvistik normalarga muvofiq ravishda kodifikatsiya qilinadi va ilmiy-texnik lug‘atlarga kiritiladi. Ushbu yondashuv terminlarning izchil va aniq ta’riflanishini ta’minlash bilan birga, ularning amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishiga ham yordam beradi. Ayniqsa, ta’lim, ilm-fan va texnika sohalarida terminlarning semantik maydon asosida shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega.

Semantik maydon nazariyasining terminologiyaga qo‘llanilishi ilmiy tadqiqotlarda, tarjimalarda, ta’lim jarayonida terminlarni tizimlashtirish, ularni to‘g‘ri tushunishda samarali yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Semantik maydon nazariyasi lingvistika va terminologiya sohalarida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, terminlarni tizimli ravishda o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, terminlarni

semantik maydon asosida tahlil qilish va ularni guruhlash ilmiy tushunchalarni aniqroq anglashga yordam beradi. Semantik maydon ichida terminlar o‘zaro semantik munosabatlari asosida tizimlashtiriladi, bu esa ularning aniqligi va tushunarligini oshirishga xizmat qiladi. Terminlar orasidagi sinonimiya, antonimiya, giponimiya kabi munosabatlarni aniqlash ularning lingvistik tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Semantik maydon nazariyasini terminologiya sohasida qo‘llashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- tizimlilik – terminlar ma’lum bir mantiqiy tizim asosidajoylashtiriladi, bu ularni o‘rganish va tushunishni osonlashtiradi;
- standartlashtirish – terminlarni ilmiy va texnik lug‘atlarga kiritish, ularning ma’nolarini aniqlashtirish imkonini beradi;
- ilmiy tadqiqot va ta’lim jarayonida qo‘llash – talabalar va mutaxassislar uchun terminlarni aniq tushuntirish va ulardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi.

Xulosa. Semantik maydon nazariyasining terminologik tadqiqotlarga qo‘llanilishi lingvistik standartlar, ta’lim jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuvni yanada kengroq tadqiq etish, uni boshqa ilmiy sohalarga tatbiq qilish imkoniyatlari mavjud. Semantik maydon nazariyasi terminologik birliklarni tizimli ravishda o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda samarali vosita bo‘lib, u tilshunoslik, tarjima va ta’lim sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmanova, Z. T. (2022). Semantik maydon va semantik to‘r imkoniyatlari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(01), 37-43.
2. Saparova, M.F. (2022). Lug‘atda semantik maydonlarni o‘rganishda leksikografik tamoyillar. Ma’mun universiteti, “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: fan va ta’lim” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 156-159.
3. Matnazarov, Sh. B. (2022). Semantik maydon nazariyasining shakllanishi va gul nomlarini shu asosda o‘rganish masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti, 4, 45-52.

4. SAIDOV, U. (2023, June). *Statistical Description of Professional Terms Given in “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”*. JOURNAL OF ADVANCED LINGUISTIC STUDIES.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

5. Saidov, U. R. (2023, March). *Ish yuritish terminlarini til korpusida semantik razmetkalash (antonim va omonim ish yuritish terminlari misolida)*. Academic research in educational sciences.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

6. Saidov, U. R. (2024, May). *O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ish yuritishga oid terminlar ustida ishlash tamoyillari*. O‘zbekiston milliy axborot agentligi – O‘zA ilm-fan bo‘limi (Elektron jurnal).

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:IjCSPb-OGc4C

7. Saidov, U. (2022). Requirements for linguistic classification of business terms. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (9), 300-304.